AGROSANOATNING MEVA-SABZAVOT SEKTORIDA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA JARAYONLARI VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI.

Bobur Normatov Muydinjonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi "O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi muammolari va Ilmiy asoslari" ITM mustqail izlanuvchisi

Anotatsiya. *Agrosanoat sektori har qanday mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Bu soha aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, bandlikni oshirish va eksport salohiyatini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda O'zbekistonda ushbu sektorni modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarishni ko'paytirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.*

Mazkur maqolada agrosanoat sektorining muhim tarmog'i hisoblangan oziq-ovqat va mev-sabzavot yetishtirish va uni mintaqalararo eksporti, yutuq va kamchiliklari va ushbu tarmoqni rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar : *Integratsion muhit, agrasanoat sektori, oziq-ovqat xavfsizligi, agrar munosabatlar, xorijiy tajriba.*

So'nggi yillarda respublikamizda qishloq xo'jaligining muhim tarmog'i sifatida meva-sabzavot yetishtirishga davlat tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, davlatimiz rahbari joriy yil 2024-yil fevralda bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida meva-sabzavot yetishtirish va eksportini oshirish maqsadida aholiga yana 60 ming gektar yer tarqatilishini ma'lum qilgandi. Ushbu holat yuzasidan birgina 2024-yil oxiriga kelib O'zbekiston 2 million tonna meva-sabzavot mahsulotlarini chet elga eksport qilib, umumiy qiymati 2 milliard AQSh dollariga teng daromadga erisha oldi. Bu ko'rsatkich hajm bo'yicha 2022-yilga nisbatan 15,8 foizga, qiymat bo'yicha esa 31,2 foizga o'sdi, bu esa so'nggi uch yilda eksport qilinayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 3 barobardan ziyod oshganini ko'rsatadi. Mamlakatimizning mahsulot yetkazib beradigan korxonalari xalqaro ko'rgazma va ixtisoslashtirilgan yarmarkalarda faol ishtirok etmoqda. Dunyoning 80 ta davlatiga 180 turdan ortiq sarxil meva-sabzavot va ularni qayta ishlash asosida tayyorlangan mahsulotlarni eksport qilinmoqda. O'zbekiston o'rik, olxo'ri, uzum, yong'oq, karam va boshqa ko'plab meva va sabzavot mahsulotlarini eksport qilish hajmi bo'yicha dunyoda shunday mahsulotlarni yetkazib beradigan o'nta yetakchi davlat qatoriga

kiradi. Mamlakatdagi iqtisodchi ekspertlar tomonidan 2025-2030 yillarda meva va sabzavot, uzum va poliz mahsulotlari yetishtirishni 2020-2022 yillarga nisbatan kamida 1,3, sutni 1,5, tuxumni 1,7 marta ko'paytirish prognoz qilingan.

Agrosanoat sektorida oziq ovqat va meva-sabzavot ishlab chiqarish ko'rsatkichlari (2021–2024)[1]

Yil	Mahalliy ishlab chiqarish (mln $)	Eksport (mln $)	Import (mln $)
2021	*15,041*	*1,336*	*1.851*
2022	*17,297*	*1,372*	*2,510*
2023	*18,863*	*1,632*	*3,393*
2024	*20,500*	*2,000*	*4,000*

Bunday ko'rsatkichlarga erishish uchun, birinchi navbatda, qishloq xo'jaligini isloh etish va modernizasiya qilish, yerlarning meliorativ holatini va irrigasiya tizimini yaxshilash, tupzroq unumdorligi va hosildorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlarni davom ettirish va chuqurlashtirish zarur. Bu borada xorijiy investisiyalarni jalb qilish va albatta mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga jahon bozoridagi talabni oshirish, ularni saqlash, logistika va iste'molchilarga yetkazib berishning zamonaviy tizimini shakllantirishga alohida e'tibor qaratishilishi kerak. Oziq-ovqat mahsulotlari, birinchi navbatda, sabzavot, meva va uzumni daladan iste'molchiga yetkazib berishda nobudgarchiliklarning oldini olish bo'yicha meva va sabzavotlarni saqlaydigan ombor va muzlatgichlar tizimi yetarli darajada rivojlanmagani, logistika va yo'l xarajatlari bilan bog'liq ko'pgina muammolarni yechish talab etiladi. Yurtimizda yetishtirilayotgan meva sabzavot mahsulotlarining aksariyat qismi yangi uzilgan holda emas, balki konservasiya qilingan, qayta ishlangan yoki quritilgan holda iste'mol qilinmoqda. Bunday holatda mahsulotlar o'zining sifati, ta'mi va tibbiyot nuqtai nazaridan iste'mol xususiyatlarini ma'lum darajada yo'qotadi.

Mazkur sohada sezilarli o'zgarishlar bo'layotganiga qaramasdan, mahsulotni asl holida saqlash, narx-navo barqarorligini ta'minlash, uning keskin oshib ketishining oldini olish, narx-navoga mavsumiy omillarning ta'sirini kamaytirish va boshqa masalalarni hal etish uchun zarur bo'lgan barcha infratuzilma, resurs va imkoniyatlarga ega emasmiz, bu borada muzlatish, neytral gazli muhitda saqlash kabi zamonaviy texnologiyalarni yanada ko'paytirish talab qilinadi. Ayni paytda O'zbekistonda bu yo'nalishda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda jami 190 ming tonnadan ziyod meva va sabzavotlar saqlanadigan 274 ta

[1] https://www.stat.uz/uz/nashrlar-menu/infrografikalar

zamonaviy sovutgichli kamera va omborlarni qurish va to'liq rekonstruksiya qilish ishlari nihoyasiga yetkazildi.

Hozirgi vaqtga kelib mamlakatimizda jami 970 ming tonna mahsulotni saqlash quvvatiga ega bo'lgan 1580 dan ziyod omborlar mavjud. Ularda har yili meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy turlari saqlanmoqda. Bu esa ichki bozorda narxnavoni barqaror ushlab turish va kuzgi-qishki mavsumda ushbu mahsulotlarni eksport qilishni kafolatli ta'minlash imkonini bermoqda. O'zbekiston kompaniyalari Boltiq dengizi bo'yidagi Liyepay portida bir kecha kunduzda 1,5 ming tonna mahsulotni saqlash quvvatiga ega bo'lgan transport logistika markazini tashkil etilib, ushbu markaz orqali meva-sabzavot mahsulotlari Shimoliy va G'arbiy Yevropa mamlakatlariga to'g'ridanto'g'ri yetkazib beriladi.

Qishloq xo'jaligini modernizasiya qilish va uning samaradorligini oshirish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish, ularning turini kengaytirish va sifatini oshirish xorijiy investisiyalarni jalb etmasdan, xalqaro moliya institutlari va bank tuzilmalarining yordami va qo'llab-quvvatlashiga tayanmasdan turib erishib bo'lmaydi.

Xalqaro qishloq xo'jaligini rivojlantirish fondi, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki, Global ekologik fond, Birlashgan Millatlar Tashkilotining oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti kabi boshqa ko'plab institutlar, shuningdek, xorijiy mamlakatlar hukumatlari agentliklarining shu borada ko'rsatayotgan yordami kata bo'lib, ularning ishtirokida yuzdan ortiq investisiya va grant loyihalarini amalga oshirish uchun 1,7 milliard dollardan ortiq mablag' jalb etildi. Ajratilgan moliyaviy mablag'lar bilan birga,birinchi navbatda, ilg'or agrosanoat texnologiyalarini jalb etish, qishloq xo'jaligi infratuzilmasi, irrigasiya va meliorasiya tizimlarini rivojlantirish va rekonstruksiya qilish, marketing va jahon bozorlariga chiqish bo'yicha yangi texnologiyalarni joriy qilish borasida amaliy yordam va hamkorlik ko'rsatilgan.

Lekin shunga qaramasdan mamlakatning agrar sohasi hamda oziq-ovqat eksporti bo'yicha integratsiyalashuvchi yaqin mintaqa mamlakatlari bilan yuqori ko'rsatkichlarga egaligi saqlanib qolmoqda. Bunga albatta bir necha sabablarlarni keltirib o'tish muhim. Ya'ni O'zbekiston Markaziy Osiyoning markazida joylashganligi, bu qo'shni mamlakatlar bilan mahsulot tashishda transport masofasi qisqa, bu esa eksport va import xarajatlarini kamaytirishi, ayniqsa, tez buziladigan meva-sabzavot mahsulotlari uchun tez yetkazib berish juda muhimligi, O'zbekiston va yaqin davlatlar o'rtasida erkin savdo shartnomalari, **MDH**, **SHT**, **EurAsEC** kabi tashkilotlar doirasida agrar soha integratsiyasi, qishloq xo'jaligida oson investitsiya jalb qilish, qo'shma agrasanoat tashkil etish, texnologik almashinuvlar, yaqin

mintaqalarda aholining agrar mahsulotlarga ehtiyoji yuqoriligi, o‘z mahsulotini mintaqaviy bozor orqali tez realizatsiya qilish imkoniyati hamda bu bozorlarda raqobat pastroq bo‘lgani uchun eksport imkoniyati kengroq ekani asosiy sabablardandir.

Quyidagi jadval asosida O’zbekistonning asosiy eksport bozorlari va ularga eksport qilingan meva-sabzavot maxsulotlarining miqdor ko’rsatlarini ko’rishimiz mumkin[2]

Mamlakat	ming tonna	mln. dollar
Rossiya	815,1	$632,9
Qozog‘iston	520,5	$189,8
Pokiston	124,7	$192,3
Afg‘oniston	67,6	$124,4
Xitoy	144,6	$128,6

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda qo’shni respublikalar umuman mintaqadagi barcha agrar sohadagi integratsion jarayonlarni ko’rib chiqish maqsadli bo’ladi.

O’zbekiston va mintaqa mamlakatlarining agrar sohasidagi hamkorlik jarayonlari

O’zbekiston va Rossiya agrar soha aloqalari.

- ✓ *O‘zbekiston meva-sabzavot eksportining taxminan 60–65% qismi Rossiya bozoriga yo‘naltirilmoqda;*
- ✓ *Temir yo‘l va avtomobil yo‘llari orqali meva-sabzavot eksporti hajmi oshmoqda;*
- ✓ *Rossiyalik investorlar O‘zbekistonning agrosanoat korxonalariga va meva-sabzavot sohasidagi ishlab chiqarish loyihalariga investitsiyalar kiritmoqda;*
- ✓ *O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasida agrar texnologiyalar va innovatsiyalar almashinuvi rivojlanmoqda.*

O’zbekiston va Qozog’iston qishloq xo’jaligi aloqalari.

- ✓ *O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasida meva-sabzavot, don va yog‘-moy mahsulotlari eksporti faol rivojlanmoqda;*
- ✓ *Qozog‘iston O‘zbekiston uchun asosiy eksport bozori hisoblanadi, ayniqsa, meva-sabzavot va sabzavot mahsulotlari bo‘yicha;*
- ✓ *Mintaqaviy logistika va transport sohasida bir qator imtiyozlar yaratilgan, bu esa tovarlarning tez va samarali harakatlanishini ta’minlaydi.*

[2] https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistans-fruit-and-vegetable-exports-reach-us15-billion-in-2024/

- ✓ *Mintaqaviy savdoni rivojlantirish uchun muzlatish omborlari va sovutgichli transport tizimlarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shma loyihalar amalga oshirilmoqda*

O‘zbekiston-Tojikiston agrar xo’jaligi aloqalari.

- ✓ *Tojikiston O‘zbekiston uchun muhim qo‘shni davlat bo‘lib, meva-sabzavot mahsulotlarini import qilishda muhim o‘rin tutadi;*
- ✓ *Suv resurslari va agrar texnologiyalarni rivojlantirishda hamkorlik aloqalari mavjud;*
- ✓ *Mintaqaviy suv ta’minoti va qishloq xo‘jaligi tizimini modernizatsiya qilish borasida loyihalar amalga oshirilmoqda.*

O‘zbekiston-Turkmaniston agrar xo’jaligi aloqalari.

- ✓ *Turkmaniston bilan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bo‘yicha savdo aloqalari kengaymoqda;*
- ✓ *Jahon bozoriga meva-sabzavotlarni yetkazib berishda transport logistikasi sohasida hamkorlik mintaqaviy savdoni rivojlantirishga yordam bermoqda.*

O‘zbekiston-Qirg‘iziston agrar xo’jaligi aloqalari.

- ✓ *Qirg‘iziston bilan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetkazib berish va qayta ishlash sohasida birgalikdagi loyihalar amalga oshirilmoqda;*
- ✓ *O‘zbekiston tomonidan qirg‘iz bozoriga paxta, don, meva-sabzavot mahsulotlari yetkazib beriladi;*
- ✓ *Ushbu mamlakatlar o‘rtasida bojxona va transport infratuzilmasini yaxshilash borasida muzokaralar olib borilmoqda;*

Xulosa va takliflar.

Mamlakatimizning turli mintaqalar bilan agrosanoat sohasidagi muvaffaqiyatli integratsion jarayonlari va tajribalari shuni ko‘rsatadiki, rivojlanishning yagona modeli mavjud emas. Har bir mintaqa o‘zining tabiiy-iqlim sharoitlari, iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlaridan kelib chiqib, o‘ziga xos yo‘lni tanlashi mumkin. Biroq, yuqorida ko‘rib o‘tilgan hamkorlik va tajribalardan olingan umumiy xulosalar mavjud:

- *Innovatsiyalarga investitsiya kiritish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish;*
- *Tabiiy resurslardan oqilona va barqaror foydalanish;*
- *Ilm-fan va biznes o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish;*

- *Kichik dehqon xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash va kooperatsiyani rivojlantirish;*
- *Bozorga yo‘naltirilgan siyosat olib borish va eksportni rag‘batlantirish;*
- *Davlatning agrosanoat sektorini strategik qo‘llab-quvvatlashi;*

Ushbu mintaqaviy tajribalarni o‘rganish hamda ulardan olingan tajriba va ko’nikmalarni mahalliy sharoitga moslashtirish orqali har bir mintaqa o‘zining agrosanoat sektorini yanada samarali va barqaror rivojlantirishi mumkin. Kelgusida ushbu yo‘nalishda chuqur tadqiqotlar olib borish, muvaffaqiyatli modellar va mexanizmlarni aniqlash muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish tartibi” to‘g‘risidagi 163-sonli nizom., 2019-yil 23-fevral.
2. “Meva-sabzavot mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar” to’g’risidagi Prezident Farmoni 2018-yil 17-oktyabr.
3. Abdug'aniyev A., Avdug'aniyev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Darslik. -T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006 yil.
4. Iqtisodiyotning agrar sektori. T.Jo'rayev, Sh. Allayarov, X.Asatullayev, T. Umarov, Ma'ruzalar matni. -T.: TIM, 2019
5. Saidova D.N., Rustamova I.B., Tursunov Sh.A. “Agrar siyosat va oziqovkat xavfsizligi”. O’quv qo’llanma. T.: “O’zR Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi” bosmaxonasi nashriyoti, 2016. - 257 b.
6. Б.А. Кандиус, Эконимика агропромышленного комплекса: учебное пособие // Пос. Акад. Наук, Ин-т, Европии. - М.: Памятники исторической мисли, 2020.
7. www.agro.uz - O’zbekiston Respublikasi Qishloq va Suv xo’jaligi vazirligi portali.
8. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat Satistika Qo'mitasi portali